

**MAMLUK MISRIDAGI LINGVISTIK MANZARA, QIPCHOQ TILINING
MAQOMI, O‘ZARO TA’SIRLAR**

Ashirov Odilbek,
Qoraqalpoq davlar universiteti,
ashirovodilbek100@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18902996>

Annotatsiya: *Maqolada Mamluq misridagi lingvistik manzara, o‘zaro ta’sirlar va filologik meros haqida gap ketadi. Umuman olganda, Mamluklar davrida Misrning siyosiy-ijtimoiy va madaniy hayotida turkiy unsurlarning mavqei, o‘sha davrda yaratilgan manbalarda qipchoq tilining til xususiyatlari, lingvomadaniy muhit, o‘zbek tili tarixi va uning qipchoq lahjalarining shakllanish jarayonlarini chuqurroq anglashga yordam beradi. XIII–XV asrlarga oid mamluk-qipchoq yozma yodgorliklarida qayd etilgan til xususiyatlari, jumladan, ularda aks etgan dialektal xilma-xillik, turkologiya fani uchun ahamiyati kabi masalalarga to‘talib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *Mamluq, mamluk-qipchoq, dashti qipchoq, lingvistik manzara, qipchoq tili, o‘zbek tili tarixi, o‘zbek shevalari.*

Annotation: *The article discusses the linguistic landscape, interactions, and philological heritage in Mamluk Egypt. In general, the position of Turkic elements in the socio-political and cultural life of Egypt during the Mamluk period, the linguistic features of the Kipchak language in the sources created during that period, the linguocultural environment, the history of the Uzbek language and the processes of formation of its Kipchak dialects help to understand more deeply. The features of the language recorded in the Mamluk-Kipchak written monuments of the XIII-XV centuries, including the dialectal diversity reflected in them, and their significance for the science of Turkology, are discussed.*

Keywords: *Mamluk, Mamluk-Kipchak, Dashti Kipchak, linguistic landscape, Kipchak language, history of the Uzbek language, Uzbek dialects.*

Аннотация: *В статье рассматривается лингвистическая картина, взаимодействия и филологическое наследие в мамлюкском Египте. В целом, роль тюркских элементов в политической, социальной и культурной жизни Египта в период мамлюков, языковые особенности кыпчакского языка в источниках, созданных в тот период, лингвокультурная среда, история узбекского языка и процессы формирования его кыпчакских диалектов помогают глубже понять. Были рассмотрены такие вопросы, как языковые особенности, зафиксированные в мамлюкско-кыпчакских письменных памятниках XIII-XV веков, включая отраженное в них диалектное разнообразие и его значение для науки тюркологии.*

Ключевые слова: *Мамлюк, мамлюк-кыпчак, степь кыпчак, лингвистический ландшафт, кыпчакский язык, история узбекского языка, узбекские диалекты.*

Misrda Mamluklar hukmronligi davri (taxminan 1250-1517- yillar)da yaratilgan va shartli ravishda Mamluk-qipchoq yodnomalari deb ataluvchi yozma meros qipchoq tillari tarixini, xususan, uning o‘rta asrlardagi holatini o‘rganish uchun g‘oyat muhim va boy manba hisoblanadi. Bu davrda nafaqat adabiy va diniy asarlar, balki maxsus lingvistik tadqiqotlar (lug‘atlar, grammatikalar) ham yaratilganki, bu o‘sha davr tilini bevosita o‘rganish imkonini beradi.

Bu masalaga tarixiy jarayonlar bilan bog'liq holda yondashish muhimligini o'zbek olimasi Z.Aripova ham ta'kidlaydi. (Aripova Z, 2021, 30-bet.) Umuman olganda, Mamluklar davrida Misrning siyosiy-ijtimoiy va madaniy hayotida turkiy unsurlarning mavqei keskin oshdi. Bu, avvalo, davlatni boshqargan harbiy-siyosiy elitaning aksariyat qismi aynan turkiy (asosan qipchoq) xalqlardan iborat bo'lganligi bilan izohlanadi. X.Doniyorov yozganidek, o'sha davrda qipchoqlarning nufuzi va ta'siri shu qadar kuchli bo'lganki, ba'zi arab tarixchilari Misrdagi barcha turkiy xalqlarni umumiy nom bilan qipchoqlar deb ataganlar. (Doniyorov X. 1976, 29-36-bet.) X.Doniyorov o'z asarida rus tarixchisi N.A.Aristovning "Turkiy qabila va xalqlarning etnik tarkibi" nomli maqolasiga tayanib, (Аристов Н.А. (1897). Заметки об этническом составе тюркских племен и народностей и сведения об их численности. // Живая старина. Вып. III-IV. Санкт-Петербург. – 341-378) mashhur arab tarixchilari Amir Rukniddin Beybars ad-Davodor al-Mansuriy (o'z asari "Zubdat al-fikra fi tarix al-hijra"da) va Ibn Xaldun (mashhur "Muqaddima" va "Kitob al-Ibar" asarlarida) Misrdagi qipchoqlarni 11 ta yirik qabilaga (yoki urug'ga) bo'lib ko'rsatganliklari haqidagi ma'lumotni keltiradi. (Doniyorov X. 1976, 29-bet.).

Mamluk davlatining ilk sultonlari – Bahriy mamluklar (taxminan 1250-1382 yil) davrida saroyda va davlat boshqaruvida (devonxonalarda) qipchoq tili faol qo'llangan. Garchi bu tilda ma'lum darajada o'g'uz tilining ham ta'siri sezilsa-da (chunki mamluklar orasida turli turkiy guruhlar vakillari bo'lgan), asosiy muloqot tili qipchoq tili edi. (Ayalon, D, (1951), 66-bet. Aynan shu davrda Misrda qipchoq tilini o'rganishga katta e'tibor qaratilganligi, uning grammatikasi va ayniqsa boy leksikasini tadqiq etishga bag'ishlangan yuqorida zikr etilgan "Kitob al-idrok li-lison al-atrok", "At-tuhfa az-zakiyya fil-lug'at at-turkiyya" kabi qator muhim asarlarning yozilishi ham buning yaqqol dalilidir.

Qiziqarli jihati shundaki, ba'zi tadqiqotchilar Mamluk davlatida qo'llangan qipchoq tili bilan hozirgi o'zbek tilining qipchoq lahjalari o'rtasida yaqinlik mavjudligi haqida fikr bildiradilar. Z.Aripova ham o'z tadqiqotida shunday qarashlarni keltiradi. (Aripova Z, 2021, 30-bet). Bunday xulosaga kelishga Mamluk-qipchoq yodnomalari tilida uchraydigan ba'zi fonetik (masalan, tovush mosliklari), morfologik (ayrim qo'shimchalarning qo'llanilishi) va leksik (umumiy so'zlar) xususiyatlarning hozirgi o'zbek qipchoq lahjalarida (masalan, Qoraqalpog'istonning aksar o'zbek shevalari, Xorazm, Samarqand, Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarining ayrim hududlarida tarqalgan shevalarda) ham saqlanib qolganligi asos bo'ladi. (Abdurahmonov G., Shukurov Sh. (1973). Albatta, bu Mamluk Misriga borgan qipchoqlar hozirgi o'zbek qipchoq lahjalari vakillarining to'g'ridan-to'g'ri

ajdodlari edi, degani emas. Biroq, bu til xususiyatlarining o‘xshashligi ularning qadimda umumiy yoki o‘zaro yaqin til hududiga mansub bo‘lganligidan, qipchoq tillarining tarixiy taraqqiyotidagi umumiy bosqichlardan dalolat beradi. Bu yo‘nalishdagi qiyosiy tadqiqotlar o‘zbek tili tarixi va uning qipchoq lahjalarining shakllanish jarayonlarini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Mamluk Misridagi lingvistik manzara, qipchoq tilining maqomi, o‘zaro ta’sirlar va filologik meros haqida gap ketganda aytish mumkinki, Bahriy mamluklar sulolasi davrida (1250-1382) davlatning harbiy va siyosiy elitasini asosan Dashti Qipchoqdan kelib chiqqan turkiylar tashkil etganligi sababli, ularning ona tili bo‘lgan turkiy (qipchoq) tili Mamluklar davlatida keng tarqaldi va yuqori ijtimoiy mavqega ega bo‘ldi. (Holt, P. M, (1986), London: Longman.) Sultonlar (Baybars, Qalovun va boshqalar) va amirlarning asosiy muloqot tili qipchoq tili edi. Bu holat mahalliy arab aholisining ma’lum qatlamlari, xususan, davlat xizmatida yuqoriroq mavqega erishishni yoki hukmdorlarning e’tiborini qozonishni istaganlar orasida qipchoq tilini o‘rganishga bo‘lgan rag‘batni kuchaytirdi. (Thorau, P, (1992), 15-16-bet). Shu bilan birga, mamluklar davlatining rasmiy devon ishlari, diniy hayot, ilm-fan va adabiyot sohalarida, shuningdek, mamlakat aholisining mutlaq ko‘pchiligi bilan muloqotda arab tili o‘z mavqeini to‘liq saqlab qolgan edi. Ko‘pchilik mamluk hukmdorlari va harbiylari arab tilini mukammal bilmaganligi sababli, davlat boshqaruvida, ayniqsa, mahalliy aholi bilan bog‘liq masalalarda tarjimonlar xizmatiga doimiy ehtiyoj mavjud edi. (Ayalon, D, (1977), London: Variorum Reprints). Bunday murakkab va ko‘p qatlamli lingvomadaniy muhit tabiiy ravishda ikki til o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir jarayonlarini kuchaytirdi. Bir tomondan, arab tilidagi ba’zi diniy, ilmiy va adabiy asarlar mamluk elitasi uchun tushunarli bo‘lishi maqsadida turkiy (qipchoq) tiliga tarjima qilindi. Boshqa tomondan, turkiy folklor, harbiy istilohlar va boshqaruvga oid tushunchalar arab tiliga o‘zlashdi. Eng muhimi, ushbu ikki tillilik sharoiti amaliy ehtiyojlar tufayli arab-qipchoq tillariga oid maxsus filologik asarlar – lug‘atlar va grammatikalarning yaratilishiga turtki bo‘ldi. Bular orasida Abu Hayyon al-Andalusiyning mashhur “Kitob al-idrok li-lison al-atrak” (Turklar tilini anglash kitobi) va “Kitob al-af’ol” (Fe’llar kitobi) asarlari, noma’lum mualliflar tomonidan yozilgan “At-tuhfa az-zakiyya fil-lug‘at at-turkiyya” (Turkiy til haqida noyob tuhfa), “Kitob bulg‘at al-mushtoq fi lug‘at at-turk va-l-qifjoq” (Turk va qipchoq tiliga mushtoqlar uchun qo‘llanma) kabi yodgorliklar alohida ajralib turadi. (Bodrogligeti, A. J. E. (2003), 1-42-bet). Bu asarlar nafaqat o‘sha davrdagi qipchoq tilining lug‘aviy va grammatik xususiyatlarini aks ettiradi, balki arab tilshunoslik an’alarining turkiy tillarga tatbiq etilishining yorqin namunasidir. (Erners. R. (1999).

Mutaxassislarning ta’kidlashicha, mamluk-qipchoq yozma yodgorliklarida aks etgan til bir xil, standartlashgan yagona me’yordagi til emas edi. Buning sabablaridan biri Mamluklar davlatida qipchoqlarning asosiy qismidan tashqari, turli davrlarda kelgan boshqa turkiy guruhlar – o’g’uzlar, turkmanlar (xususan, Ondo’lidan kelganlar) va ehtimol, qarluq lahjalarida so’zlashuvchi ayrim guruhlarining ham mavjud bo’lganligidir. (Golden, P. B, (1992), 384-386). Shuningdek, Misrga turli qipchoq qabilalari (to’qsoba, burjao’g’li, yemak va boshqalar) vakillari kelgan bo’lib, ularning lahjalari ham o’zaro bir oz farqlangan.

Bu til xilma-xilligi o’sha davr filologik asarlarida ham o’z aksini topgan. Masalan, “Tarjumon” muallifi yoki Abu Hayyon kabi olimlar o’z asarlarida turkiy tilning turli ko’rinishlari haqida ma’lumot berishga harakat qilishgan. “Kitob bulg’at al-mushtoq”ning noma’lum muallifi, A.K.Kurishjanov tadqiqotiga ko’ra, o’ziga bir nechta turkiy lahjalar ma’lum ekanligini ko’rsatadi: التركي (at-turkiy), القفجاقى (al-qifjoqiy) va التركمانية (at-turkmaniyya). A.Kurishjanovga ko’ra, muallif التركي yoki القفجاقى deb aslida asosiy o’rganilayotgan qipchoq tilini nazarda tutadi. Boshqa manbalar, xususan, Abu Hayyon va “At-Tuhfa” muallifi ham qipchoq va turkman (o’g’uz) tillarini farqlaganlar. (Golden, P. B, (1992), 384-386-bet). Ular odatda التركمانية atamasi ostida o’g’uz lahjalarini tushunishgan va ba’zan ularni qipchoq tiliga nisbatan arab va fors tillaridan ko’proq so’z olgan “aralash” yoki “buzilgan” til sifatida baholash holatlari uchragan, (Kurishjanov A.K. (1970) 16-bet) lekin bu baholashlar ko’proq muallifning qipchoq tilini asosiy o’rganish ob’ekti sifatida tanlagani bilan bog’liq bo’lishi mumkin. Aslida esa, har ikki til guruhi (qipchoq va o’g’uz) ham o’sha davrda Yaqin Sharqda mavjud bo’lgan va o’zaro munosabatda rivojlangan.

Aytish mumkinki, mamluk Misrida yaratilgan filologik asarlar nafaqat o’sha davr Misrining lingvistik manzarasini aks ettiradi, balki butun turkiy tillar oilasining tarixiy taraqqiyotini tushunishda markaziy o’rin tutadigan noyob merosdir.

XIII–XV asrlarga oid mamluk-qipchoq yozma yodgorliklarida qayd etilgan til xususiyatlari, jumladan, ularda aks etgan dialektal xilma-xillik, turkologiya fani uchun ikkilamchi ahamiyatga egadir. Bir tomondan, bu manbalar zamonaviy qipchoq guruhi tillarining (qozoq, tatar, boshqird, qoraqalpoq, qirg’iz, qumiq, no’g’ay va boshqalar) fonetik tuzilishi, morfologik tizimi va leksik tarkibining tarixiy taraqqiyotini bosqichma-bosqich kuzatish uchun bebaho material beradi. Ularda saqlanib qolgan arxaik unsurlar va o’sha davrdagi til me’yorlari bugungi tillarning shakllanish jarayonlarini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aripova Z. (2021). O'рта asrlarda Markaziy Osiyo-Misr munosabatlari. Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi nashriyoti. – b. 30.)
2. Doniyorov X. (1976). Eski o'zbek adabiy tili va qipchoq dialektlari. Toshkent: O'zbekiston SSR Maorif ministrligi; Nizomi nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti. – B. 29-36.
3. Аристов Н.А. (1897). Заметки об этническом составе тюркских племен и народностей и сведения об их численности. // Живая старина. Вып. III-IV. Санкт-Петербург. – С. 341-378.
4. Ayalon, D. (1951). L'esclavage du Mamelouk. Jerusalem: Israel Oriental Society. Israel Oriental Society, 1951., 1, Pp. 1-66.
5. Abdurahmonov G'., Shukurov Sh. (1973). O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent: O'qituvchi.
6. Holt, P. M. (1986). The Age of the Crusades: The Near East from the Eleventh Century to 1517. London: Longman.
7. Thorau, P. (1992). The Lion of Egypt: Sultan Baybars I and the Near East in the Thirteenth Century. (Translated by P. M. Holt). London: Longman. – P. 15-16.
8. Ayalon, D. (1977). Studies on the Mamlūks of Egypt (1250-1517). London: Variorum Reprints.
9. Bodrogligeti, A. J. E. (2003). A Grammar of Mamluk-Kipchak. Leiden: Brill. pp. 1-42.
10. Ermers, R. (1999). Arabic Grammars of Turkic: The Arabic Linguistic Model Applied to Foreign Languages & Translation of 'Abu Hayyan al-'Andalusi's Kitab al-'Idrak li-Lisan al-'Atrak. Leiden: Brill.
11. Golden, P. B. (1992). An Introduction to the History of the Turkic Peoples: Ethnogenesis and State-Formation in Medieval and Early Modern Eurasia and the Middle East. Wiesbaden: Otto Harrassowitz. p. 384-386
12. Kurishjanov A.K. Issledovaniye po leksike starokipchakskogo pismennogo pamyatnika XIII v. "Tyurksko-arabskogo slovarya". – Alma-Ata, 1970. – S. 16.